

**SUD TERGOV FAOLIYATIDA SHAXSNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA
QILISH KAFOLATLARI VA MEXANIZMLARI**

Baqoyev Shahzod Hasan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti

Qo'riqlash va o'quv jarayonini ta'minlash batalyoni

Qo'riqlash guruhi komandiri

Shaxzodkhasanovich@gmail.ru

Anotatsiya. Ushbu maqolada sud-tergov tizimining yangicha talqini, adolatli va korrupsiyasiz hukm qilishni yanada takomillashtirish haqida asosli mulohazalar yuritilgan

Kalit soʻzlar. Qonunchilik, tergov, korrupsiya, Andijon shahar va chiroqchi tumani, protsessual harakat, yarashuv instituti.

Dunyo hamjamiyatining inson huqulariga boʻlgan eʼtibori kundan kunga kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonda bizning mamlakatimiz oldingi saflarda desak mubolagʻa boʻlmaydi. Sud-tergov tizimidagi faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan qonun, qaror va farmonlar hamda ularning ijrosining taʼminlanishi bunga yaqqol misoldir

Bunday mamlakat xalqaro maydonda iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlat sifatida tan olinadi. Xalqaro huquq qoidalariga asosan bunday davlat bilan boshqa davlatlar rasman yuridik aloqalar oʻrnatishadi.

Dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir boʻlayotgan bugungi ziddiyatli jarayonlarda Oʻzbekiston taraqqiyotining rivojlanish yoʻli oʻzini oqlab, naqadar puxta rejalashtirilganligini isbotlamoqda.

Bularning barchasi, jamiyat hayotining turli sohalarida, xususan sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijasidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi Farmoni bilan bu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish,⁷ odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar belgilangan boʻlsa, 2020 yil 10 avgustdagi Farmon bilan sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga eʼtibor qaralib, «Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun» degan olijanob gʻoyaning amaldagi ifodasi sifatida islohotlarning navbatdagi yangi bosqichi boshlab berildi.⁸

Joriy yil 30 iyun kuni odil sudlovni taʼminlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida muhtaram Prezidentimiz xalq sud-huquq tizimidan toʻla rozi deyishga hali asos yoʻqligini, hozirgi

⁷ <https://lex.uz/docs/-4910826>

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/-4939467>

kunda qonunga xilof ravishda ushlab turish, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qilish holatlariga chek qo'yish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, Andijon shahar va Chiroqchi tuman ichki ishlar idoralarida sodir bo'lgan fojiali holatlar natijasida ikki nafar fuqaro vafot etgani tizim rahbarlarini uyg'otishi, aniq xulosalar qilishga chorlashi kerakligi alohida qayd etib, mazkur salbiy holatlar sud-tergov faoliyatini yanada takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish zarurligini ta'kidlagan edilar.

Shu munosabat bilan, Farmonda tergov va sud jarayonlarida shaxsning huquq-erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillar to'plashni mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg'or xorijiy tajribada keng qo'llanadigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan.

Bunga ko'ra, jinoyat sodir etishda gumonlangan yoki ayblangan shaxsning huquq va erkinliklarini poymol qilmaslik, ularning himoyaga bo'lgan huquqini ular ushlangan paytdan boshlab, real ta'minlash, ya'ni, ularni himoyachi bilan holi uchrashuviga qadar so'roq qilish man etilishi kabi qoidalar belgilanib, tergov-sud jarayonlaridagi protsessual harakatlarning sifat darajasi yanada oshirilib, takomillashtiriladi.

Inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. U bilib-bilmay, tushunib-tushunmay jinoyatga qo'l urib qo'yadi. Qonunlarimizda ularning ham huquqlari mustahkamlangan bo'lib, tergov-sud harakatlari jarayonida ushbu huquqlarni ta'minlashga ularga nisbatan protsessual harakatlarni olib borayotgan mansabdor shaxslarni barchasi majburdirlar.

Jinoyat kodeksida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, Farmonda bunday qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha yanada samarali mexanizmlarni joriy qilish, bunday qilmishlar uchun javobgarlikni kuchaytirish belgilangan bo'lib, bu albatta mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshishiga xizmat qilibgina qolmay, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizga ko'ra, barcha fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.⁹

Shu bilan birgalikda, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Biroq, ayrim fuqarolarimiz (jinoyat sodir etgan shaxslar yoki ularning qarindosh-urug'lari) o'zlarining burchlari va majburiyatlarini unutib, faqatgina o'z haq-huquqlarini talab qilib, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga putur yetkazib, ularni sha'ni

⁹ https://constitution.uz/uploads/constitution_oz.pdf

va qadr qimmatini kamsitib, hatto davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslarni haqoratlab, obro'sizlantirish orqali o'z maqsadlariga yetmoqchi bo'ladilar.

Farmonda jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish orqali sodir etilgan har bir jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligini hamda shaxsga, jamiyatga, davlatga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishini ta'minlashni belgilanishi, Jinoyat kodeksining insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga mos bo'lib, qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksida shaxsning aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, jinoyatni ochish uchun faol yordam berishi, yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilgan bo'lsada, endilikda agar shaxs qayd etilgan talablarga rioya qilgan bo'lsa, surishtiruv va dastlabki tergov organlari bilan yozma kelishuv tuzilishi va ushbu kelishuvga asosan sud tomonidan unga o'zi aybli deb topilgan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan ko'p bo'lmagan miqdori yoki muddatigacha jazo tayinlanishi belgilanmoqda.

Bu albatta, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarar hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi haqidagi insonparvarlik tamoyilini ta'minlaydi va jazoni liberallashtirish borasidagi navbatdagi ilg'or islohot sifatida baholanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan amalga oshirayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlardagi aloqalari yanada rivojlandi. Mazkur aloqalar doirasida fuqarolarimizga, ayniqsa tadbirkorlarga dunyoning istagan mamlakatiga hech bir to'siqlarsiz chiqish imkoniyatlari yaratib berildi.

Bugungi tergov-sud amaliyotida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga munosib hissasini qo'shayotgan ayrim tadbirkorlar yoxud fuqarolarni jinoyat ishlarida jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida ishtirok etishga jalb qilishga to'g'ri kelmoqda. Albatta bu holat dastlabki tergov va sud protsessi tugagunga qadar ularni o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun xorijiy davlatlarga chiqish imkoniyatlarini cheklab kelayotgan edi.

Bundan tashqari, dastlabki tergovda so'roq qilingan guvoh yoki jabrlanuvchining ishni sudda ko'rilgunga qadar og'ir kasallikka chalinib qolishi tufayli uni sudda so'roq qilishni imkoni bo'lmay, bu holatlar boshqa taraflarning e'tirozlariga sababchi bo'layotgan edi.

Farmonda guvoh va jabrlanuvchini og'ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zaruriyati tufayli ularni kechroq so'roq qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ko'rsatuvlarni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror yoki advokatning iltimosnomasiga ko'ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida

oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovanie) tartibini joriy qilishni belgilanishi bu boradagi kemptiklarni bartaraf etib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi.

Jinoyat ishlarini sudda ko'rish jarayonida sudlanuvchini ayblovini og'irrog'iga o'tkazish yoki boshqa shaxsni javobgarlikka tortish lozimligi aniqlangan taqdirda ish bo'yicha davlat ayblovini quvvatlayotgan prokuror, jabrlanuvchi yoki uning vakilini iltimosiga ko'ra ishni prokurorga yuborish belgilangan bo'lib, bu holat ayrim taraflarning, manfaatdor shaxslarning haqli e'tirozlariga sababchi bo'layotgan edi. Endilikda, qayd etilgan holatlar yuzaga kelganda sudga iltimosnoma kiritish huquqini barcha taraflarga berilayotgani norozigarchiliklarga barham beradi.

Jinoyat qonunchiligida yarashuv institutining joriy etilishi jinoiy huquqiy munosabatlarni erkinlashtirishda samarali vosita sifatida jabrlanuvchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish, sudlanganlik holatini kamaytirish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning kengroq qo'llanilishiga imkon yaratdi.

Shunday bo'lsada, yarashuv institutini qo'llashni faqatgina birinchi instansiya sudlariga berilishi, shu bilan birgalikda shaxsning harakatlarini u ayblanib sudga berilgan Jinoyat kodeksi moddasi (qismi, bandi)dan yarashuv instituti doirasiga tushadigan moddasi (qismi, bandi)ga qayta kvalifikatsiya qilgan holda yarashuv institutini qo'llash mumkin emasligi qaysidir ma'noda yarashuvga bo'lgan huquqni cheklab turgandek edi.

Bundan tashqari, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan barcha toifadagi shaxslarga yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi belgilangan edi.

Farmon orqali jinoyat ishi sudning qaysi instansiyasida ko'rilayotganidan qat'iy nazar shaxsga e'lon qilingan ayblovni yarashuv instituti doirasiga tushadigan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi (qismi, bandi)ga qayta kvalifikatsiya qilib, yarashuv institutini qo'llash tartibini joriy etilishi, shuningdek, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoidaning voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmasligini belgilanishi o'zbek xalqining ezgulik, kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mos bo'lib, inson manfaatlari hamma narsadan ustunligi haqidagi g'oyani chin ma'noda ta'minlab, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Farmonda shaxs oqlangan taqdirda ushbu jinoyatni haqiqatda sodir etgan shaxsni aniqlash va uni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish uchun jinoyat ishini prokurorga yuborish tartibini o'rnatilishi belgilanayotgani qonunchilikdagi ushbu kamchilikni bartaraf etib, Jinoyat kodeksidagi qonuniylik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini ta'minlaydi.

O'ylamizki, Farmonda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etilishi jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlab, shaxsning tergov va sud harakatlari

jarayonidagi huquq va erkinliklarini kafolatlashga, ularning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirida so'zlagan nutqidan. Manba: http://el.tfi.uz/images/Mirziyoyev_Sh_7c930.pdf.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
4. Муродов Б.Б. Жиноят ишени тугатишни такомиллаштириш: Дис...юр.ф.ан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
5. disserCat - электронная библиотека диссертаций, Манба: <https://ww.dissercat.com>.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят ишени тугатишни такомиллаштириш: Дис...юр.ф.ан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.
7. Строгович М.С. Избранные труды в 3 томах. Т. 2: Гарантии прав личности в уголовном судопроизводстве. Манба: <https://studmed.ru>.
8. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси.83,301-моддалар. <https://lex.uz>.
9. Муродов Б.Б. Жиноят ишени тугатишни такомиллаштириш: Дис...юр.ф.ан.док. (DSc). Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018.